

## SADULLA SIYOYEVNING “DASHTI QIPCHOQ LOCHINI” QISSASIDA TARIXIY SHAXS TALQINI

Nafisa Tuksanova

Alisher Navoiy nomidagi TDO'AU magistri

Tel: 99899 138 72 67

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20604495>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Sadulla Siyoyevning “Dashti Qipchoq lochini” romanida Shayboniyxon obrazining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda tarixiy shaxsning davlat arbobi, mohir sarkarda va siyosiy yetakchi sifatida yaratilish tamoyillari o'rganiladi. Muallif tomonidan tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligida yaratilgan obrazning xarakter xususiyatlari, psixologik tasviri hamda davlatchilik g'oyalarini ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, romanda qo'llangan dialog, monolog va portret tasvirlari asosida Shayboniyxon xarakterining badiiy qirralari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Shayboniyxon, tarixiy roman, tarixiy obraz, badiiy talqin, tarixiy haqiqat, davlatchilik g'oyasi, Sadulla Siyoyev.

### Abstract

This article analyzes the artistic interpretation of Shaybani Khan's image in Sadulla Siyoyev's historical novel “Dashti Qipchoq Lochini”. The study examines the portrayal of Shaybani Khan as a statesman, military commander and political leader. Particular attention is paid to the harmony of historical truth and artistic imagination, the psychological depiction of the character, and the expression of statehood ideas in the novel. The artistic features of Shaybani Khan's character are analyzed through dialogues, monologues and portrait descriptions presented in the work.

**Keywords:** Shaybani Khan, historical novel, historical character, artistic interpretation, statehood, historical truth, Sadulla Siyoyev.

### Kirish

O'zbek tarixiy nasrida tarixiy shaxslar obrazini yaratish masalasi muhim ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Tarixiy qissalarda tarixiy voqealar tasviri bilan bir qatorda tarixiy shaxslarning ruhiy dunyosi, siyosiy faoliyati va davr taraqqiyotidagi o'rni ham yoritiladi. Shu jihatdan Sadulla Siyoyevning “Dashti Qipchoq lochini” qissasi alohida ahamiyatga ega. Qissa XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi murakkab siyosiy jarayonlarni badiiy aks ettiradi. Asarda Shayboniyxon obrazi markaziy qahramonlardan biri sifatida tasvirlanib, uning davlat arbobi, mohir sarkarda va uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi sifatidagi fazilatlarini ochib beriladi. Yozuvchi tarixiy manbalarga tayangan holda qahramon xarakterini badiiy umumlashtirish darajasiga ko'tara olgan. Shayboniyxon obrazining tarixiy asoslarida tarixiy manbalarda Muhammad Shayboniyxon turkiy xalqlar tarixida muhim o'rin tutgan davlat arbobi va sarkarda sifatida qayd etiladi. Temuriylar saltanati zaiflashgan davrda siyosiy maydonga kirib kelgan Shayboniyxon qisqa muddat ichida katta siyosiy kuchga aylandi. Sadulla Siyoyev tarixiy haqiqatga tayangan holda qahramonni kuchli iroda va qat'iyat sohibi sifatida tasvirlaydi. Qissada Shayboniyxonning asosiy maqsadi mamlakatdagi parokandalikka barham berish va markazlashgan davlatni tiklashdan iborat ekanligi ko'rsatiladi. Muallif bu holatni: “Temuriylar saltanati bo'laklarga bo'linib, parcha-parcha bo'lib ketgan, har kim o'ziga bek, o'ziga xon edi. Bu saltanatni tiklash uchun nufuzli, qat'iyatli bir hukmdor kerak edi”, degan fikrlar orqali

ifodalaydi [1, 10-b.]. Ushbu tasvir Shayboniyxon obrazining g'oyaviy asoslarini belgilaydi. Muallif qahramonni shaxsiy manfaat ortidan quvuvchi hukmdor emas, balki davlatchilik mas'uliyatini his qiladigan arbob sifatida talqin etadi.

Shayboniyxon obrazining badiiy talqinida Shayboniyxon obrazi bir yoqlama emas, balki murakkab va ko'p qirrali xarakter sifatida yaratilgan. Adib qahramonning harbiy iste'dodi bilan bir qatorda siyosiy tafakkurini ham ko'rsatishga intiladi.

Samarqand qamali bilan bog'liq voqealarda Shayboniyxon nafaqat jangovar strategiyaga, balki diplomatik vositalarga ham murojaat qiladi. Xonzoda begim bilan bog'liq muzokaralar, Boburga nisbatan tutgan siyosati uning vaziyatni chuqur tahlil qila oladigan hukmdor ekanligini ko'rsatadi. Qahramon xarakterining muhim jihatlaridan biri uning insonparvarlik fazilatlaridir. Samarqand qamalida ocharchilik azobini chekayotgan xalq taqdiri uni befarq qoldirmaydi. Muallif qahramon tilidan: "Boylar borini yer, yo'qsil nesini yeydi? Misqinlarga rahming kelmaydimi?" degan mazmundagi fikrlarni keltiradi [1, 19-b.]. Ushbu holat Shayboniyxon obrazining faqat zabtkor emas, balki xalq taqdiriga befarq bo'lmagan inson sifatida ham talqin etilganini ko'rsatadi.

Obrazning psixologik tasvirini ochib berishda ham yozuvchining ahamiyati katta Tarixiy romanlarda psixologik tasvir qahramon xarakterini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Sadulla Siyoyev ham Shayboniyxonning ichki kechinmalarini yoritishga katta e'tibor qaratadi. Samarqand manzarasini kuzatayotgan qahramon qalbida turli his-tuyg'ular kurashi yuz beradi. Muallif bu holatni: "Umid bilan ishtiboh, sabr ila beqarorlik joy talashadi", tarzida ifodalaydi [1, 12-b.]. Ushbu tasvir qahramonning ichki olami murakkab va ziddiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, darvesh bilan bo'lgan suhbatlarda ham Shayboniyxonning o'z maqsadlariga qat'iy ishonchi, siyosiy uzoqni ko'ra bilishi va o'z so'zida mustahkam turishi namoyon bo'ladi. Bu esa obrazning ruhiy jihatdan mukammal yaratilishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga dialog va monologlarning obraz yaratishdagi o'rni asarda Shayboniyxon xarakterini ochishda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Qahramonning amirlar, elchilar va ulamolar bilan bo'lgan suhbatlari uning siyosiy tafakkurini namoyon etadi. Dialoglar orqali Shayboniyxonning davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va mamlakat taqdiri haqidagi qarashlari ochiladi. Monologlar esa qahramonning ichki dunyosini yoritadi. Ayniqsa, Samarqand va Amir Temur maqbarasi bilan bog'liq lavhalarda uning tarixiy xotira va davlatchilik haqidagi mulohazalari yorqin ifodalangan. Muallif Amir Temur siymosiga murojaat qilar ekan, Shayboniyxonning qalbidagi buyuk tarixga hurmat tuyg'ularini ochib beradi. "Turonim, deding, Turkistonim, deding. Qo'lda adolat qilichi birla o'ttiz mamlakatning boshini qovushtirding" degan murojaat qahramonning tarixiy vorislik haqidagi qarashlarini ifodalaydi [1,29-b.]. Qissaning g'oyaviy markazida davlatchilik masalasi turadi. Shayboniyxon faoliyati orqali markazlashgan davlat barpo etish, xalq birligini ta'minlash va siyosiy barqarorlikni mustahkamlash g'oyalari ilgari suriladi.

Asarda qahramonning har bir qarori davlat manfaatlari bilan bog'liq holda tasvirlangan. Muallif tarixiy voqealarni tasvirlash jarayonida qahramonning shaxsiy manfaatlaridan ko'ra xalq va davlat manfaatlarini ustun qo'yishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Shayboniyxonning ilm-fan va ma'rifatga munosabati ham obrazning muhim qirralaridan biridir. Asarda uning bo'sh vaqtlarida kitob mutolaa qilishi, olimlar va shoirlar bilan suhbatlashishi qayd etiladi [1, 98-b.]. Bu jihat qahramonning ma'naviy dunyosi boy ekanligini ko'rsatadi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Sadulla Siyoyevning “Dashti Qipchoq lochini” romanida Shayboniyxon obrazi tarixiy va badiiy haqiqat uyg'unligida yaratilgan. Adib tarixiy shaxsning siyosiy faoliyati, sarkardalik mahorati, insoniy fazilatlarini va ruhiy kechinmalarini mahorat bilan tasvirlashga erishgan.

Qissada Shayboniyxon davlat arbobi, mohir sarkarda va davlatchilik g'oyalariga sodiq tarixiy shaxs sifatida g'avdalanadi. Dialog, monolog, portret va psixologik tasvirlar qahramon xarakterini ochishga xizmat qilgan. Shu jihatdan “Dashti Qipchoq lochini” qissani o'zbek tarixiy nasrida Shayboniyxon obrazining muvaffaqiyatli badiiy talqinlaridan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Siyoyev S. Dashti Qipchoq lochini. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent: Sharq, 2001.
4. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
5. Rasulov A. Badiiylik mezonlari. – Toshkent: Fan, 2004.
6. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.